



BOLALARNING BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI SOHASI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Maxmudova G.B.

Fan va texnologiyalar universiteti "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: MTT, bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalari, komp'yuter texnologiyalari, pedagog-tarbiyachilar, predmet, ta'lim-tarbiya, tasavvur, bilim, malaka, ko'nikma, faoliyat, qobiliyat, tarbiyalanuvchi.

Ключевые слова: ДОО, компетенции в области развития познавательных процессов, компьютерные технологии, педагоги-педагоги, предмет, образование-воспитание, воображение, знания, компетентность, умение, активность, способности, обучающийся.

Key words: DOO, competences in the field of cognitive process development, computer technologies, pedagogues-educators, subject, education-education, imagination, knowledge, competence, skill, activity, ability, learner.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limda komp'yuterlardan foydalanish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta'limiga tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilarining mahorati va maktabgacha ta'limga yangi talablari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются вопросы формирования компетенций в области развития познавательных процессов у детей дошкольного возраста, использования компьютеров в образовании, создания условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста с учетом передового зарубежного опыта, дошкольного физического, психического, социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста в образовательных организациях и охраны их здоровья, развития свободного мышления, творческих способностей детей, нравственного и духовного совершенствования, подготовки к школьному обучению, мастерства педагогов и воспитателей организаций дошкольного образования, новых требований к дошкольному образованию.

SUMMARY:

In this article, the formation of competencies in the field of cognitive process development of preschool children, the use of computers in education, the creation of conditions for comprehensive



intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children, taking into account advanced foreign experience, preschool physical, mental, socio-emotional development of preschool children in educational organizations and protection of their health, development of children's free thinking, creative abilities, moral and spiritual perfection preparation for school education, skills of pedagogues and educators of preschool education organizations and new requirements for preschool education are discussed.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalari dunyosiga kirishi ilk va maktabgacha yoshida boshlanadi. Ular predmetlarni nomlashadi, shakli, rangini aniqlaydi, o'lchamlari bo'yicha solishtiradi, miqdoriy va fazoviy nisbatini o'rnatadi, geometrik shakllar va ularning o'lchamlari bilan tanishadi, modellashtirish faoliyatini o'zlashtiradi.

Bugungi kunda ta'limda komp'yuterlardan foydalanish oddiy holat bo'lib qoldi. Komp'yuterning axborotlarni grafik tasvir, video, tovush, nutq ko'rinishida aks ettirishi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash bolalar uchun faoliyatning yangi vositasini yaratishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida amaldagi o'yinlar va o'yinchoqlardan keskin farq qiladi. Bularning barchasi maktabgacha ta'limga yangi talablarni qo'yadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish avvalambor, ta'limiy o'yin faoliyatlar sifatini yaxshilaydi, yangi bilimlarni egallashga bolalar motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Innovatsion yo'nalishlardan biri bu, komp'yuterli va mul'timedial texnologiyalar hisoblanadi. Maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarbdir, chunki mul'timedia vositalari yoqimliroq, o'yin shakli bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga imkon beradi.

D.R.Babaev tarbiyalanuvchilarigata'lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab baxs – munozaralarga sabab bo'lishiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib rivojlanishida komp'yuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini berishini ta'kidlaydi.

Komp'yuterlarni qo'llash foyda keltirish bilan birga qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ulardan biri bola bilan kompyuter o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqibati hisoblanadi. Bolaga komp'yuterli o'yinlar ko'proq ta'sir qilishi mumkin, agar ular ko'proq foydalanishsa. Lekin, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishda komp'yuterning roli katta. Komp'yuter o'yinlari yordamida bolalarni matematik rivojlantirish ishlari bo'yicha istiqbolli reja 1-ilovada berilgan.



Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish nazariyasi va metodikasining bosh masalasi matematik tasavvurlarni shakllantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bu o'z navbatida dunyoni chuqur bilish, fikrlash rivojlanishining yangi usullarini o'rganish kabi vazifalarni bajarish orqali yechiladi. Bu shakllantirishning nazariy jihatlari psixologik va pedagogik fundamental fanlar asosida yaratiladi: ko'rgazmali dasturli hujjatlar (bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar); uslubiy adabiyotlar (jurnallarda chop etilgan maqolalar, maktabgacha tarbiya to'g'risidagi o'quv qo'llanmalar, o'yinlar); jamoa va individual tartibda ish olib borish, ilg'or tajriba va olimlarning fikrlari.

Hozirgi kunda bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi ilmiy asoslangan metodik tizimga ega. Ularning asosiy elementlari maqsad, mazmun, metodlar, ishni tashkil etish shakl va usullari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ular orasidagi asosiy maqsad tasavvurni va bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratiladi.

Bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishning asosiy masalalari quyidagilardan iborat: bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish darajasi nuqtai-nazaridan kichik, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhleri uchun shartli rejasini asoslash, yo'llari va shartlarini ishlab chiqish, ushbu shakllantirishni ta'minlovchi uslubiy ko'rsatmalarni berish.

Maktabgacha ta'lim davlat talablaridan kelib chiqib, bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish bo'yicha asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: rang, shakl va o'lcham kabi atrof-muhit ob'ektlarini va ularning modellarini tushunishga yordam berish, kuzatish va tajriba, tahlil va taqqoslash, klassifikatsiyalash va bo'lish kabilar orqali atrof-muhit ob'ektlarini hamda ularning modellari bilan o'zaro munosabatida bolalarning bilish faoliyati uchun sharoit yaratish, vaziyat, topshiriq va ularni bajarish usullari, faoliyat va uning natijalarini tahlil qilishni bayon etish orqali bolalar lug'atini oddiy matematik terminlar bilan boyitish, o'rgatuvchi o'yinlar, topshiriqlar, mashqlarni qo'llash qoidalarini tushunish hamda keyinchalik qo'llashga yordam berish hamda faoliyat turlari va usullarini tanlash bo'yicha tashabbuskorlik ko'rsatish uchun sharoit yaratish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi katta bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishda bolalar tomonidan kattaliklar to'g'risidagi tasavvurlarni egallashi katta o'rin egallaydi. Bunda



pedagog bolalarning yosh xususiyatlariga tayanishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruhlariga 5-6 yoshdagi bolalar boradi. Bu guruhda haftasiga 20-25 daqiqa davom etadigan bitta ta'limiy o'yin faoliyat o'tkaziladi. O'qitish jarayonida ilgari egallangan bilim va bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllanganlik haqidagi muammolarni yechish tajribasi asosida ko'rgazmalilikka tayangan holda o'tkaziladi. Ya'ni, yangi tasavvurlar uni ilgari o'zlashtirilgan tizimga kiritish asosida shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son qarori.
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son qarori.
3. Ирисбаева Ё. У. Связная речь-главное достижение в речевом развитии детей дошкольного возраста // Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
9. Yo I. Muloqot jarayonida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari // Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.
5. Календарова З.К. Мактабгача таълим: келажак ислоҳоти// Илим ҳәм жәмийет. – Нукус, 2018. - № 1. – Б. 65-66.
6. I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. // - "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2018.-59 b.
- 7.Календарова З.К. Болаларда математик тасаввурларни шакллантириш ҳамда ривожлантириш мазмуни // "Мактабгача таълимда Давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. 13-май. Б. – 127-128.
8. Kalendarova Z.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish."Maktabgacha ta'lim: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent, 2021. 27-may.
9. Irisbayeva Y. professional readiness of future educators to interact with children of preschool age // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
10. Eraliyeva, Z. (2023). MTT ning maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni mantiqiy fikrlash va bahs munozarali vaziyatlarda yechim topishga va badiiy nutqqa o'rgatish. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). izвлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
- 11.Календарова З.К. Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarni qo'llashning ahamiyati // International scientific and practical conference "international experience and modern approaches in preschool education" 15 MAY, 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11201866>
- 12.Z.K.Kalendarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning sifatini oshirish va maktabga tayyorlash. «Maktabgacha ta'lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 24-aprel' 2024 yil.